

O‘TKIR RESPIRATOR VIRUSLI INFEKSIYALARNING TASNIFI VA DAVOLASH USULLARI

Ergashev Asqar Jong‘oboyevich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti

Pedagogika fanlari nomzodi

Abdukarimov Sanjar Rustam o‘g‘li

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti

1-son Davolash fakulteti 1-bosqich talabasi

Annatsiya: *Ushbu maqola assosiy kirish, maqsad va xulosadan iborat. Bu maqola Samarqand Davlat Tibbiyot Universitetida “O‘tkir respirator virusli infeksiyalarning tasnifi va davolash usullari” ga bag‘ishlangan. Kirish qismida O‘tkir respirator virusli infeksiyalar haqida malumotlar keltirilgan, maqsadida esa O‘tkir respirator virusli infeksiyalarning tasnifi va davolash usullari aniq mazmunda keltirilgan. Xulosa qismida esa qilinga ishlar xisobat berilgan*

Kalit so‘zlar: *O‘tkir respirator, viruslar, infeksiyalar, paragripp viruslari, Pnevmoniya, Zotiljam.*

KIRISH

O‘tkir respirator virusli infeksiyalar — viruslar qo‘zg‘atadigan, kelib chiqishi bir-biriga o‘xshash o‘tkir infeksiyon kasalliklarning umumiy guruhi. Nafas yo‘llari (burun, hiqildoq, kekirdak, bronxlar) shilliq pardalari, ko‘z shilliq pardasi — konyunktivaga zarar yetishi bilan kechadi. O‘tkir respirator kasalliklarning qo‘zg‘atuvchilariga adenoviruslar, paragripp viruslari, rinoviruslar va boshqa virusli kasalliklar guruhi kiradi.

Maqsad. O‘tkir respirator kasalliklarning ayrim (sporadik-ma‘lum guruhda yakka holda tarqalishi) guruhlari ko‘proq kuzatiladi, lekin ular aholining butun bir guruhini ham qamrab, epidemiya holida ham tarqala olishi mumkin. Har qanday virusli infeksiya bemordan havo-tomchi (gaplashganda, aksirganda, yo‘talganda) yo‘li orqali yuqadi. Kasallik qo‘zg‘atuvchi viruslar yuqori nafas yo‘llariga (burun, hiqildoq)ga tushadi, shilliq parda-epiteliyning tashqi qavatidagi hujayralarga kirib, ularni yemiradi, bunda qo‘zg‘atuvchilarning bir qismi nobud bo‘lib, zaharli modda-endotoksin ajratadi va organizmni zaharlaydi. Organizmda intoksikatsiyani rivojlantiradi. Virus saqlovchi hujayralar ko‘chib tushadi va bemor gaplashganda, yo‘talganda, aksa urganda, burun shillig‘i va balg‘am bilan havoga tushib, atrofdagilarga yuqadi. Kasallik maishiy vositalar (idishtovoq, sochiq, o‘yinchoqlar va h.k.)dan



ham yuqishi mumkin. O‘RVI ni shartli ravishda mavsumiy kasalliklar deb atash mumkin, chunki bu guruh kasalliklar kech kuz va qishda ko‘proq kuzatiladi. Pnevmonokokk, klebsiyellalar, mikoplazma, legionella, xlamidiyalar, turli viruslar, gemofil tayoqchasi O‘RVI ni asosiy qo‘zg‘atuvchilari guruhiga kiradi.

Adenovirus kasalliklarga adenoviruslar sabab bo‘lib, ular antibiotiklar ta‘siriga chidamli, past temperaturada uzoq saqlanadi. Ultrabinafsha nurlar, formalin va fenolning 5% li eritmasi ta‘sirida nobud bo‘ladi. Organizmga kirgan adenoviruslar 3— 14 kun davomida kasallik belgilarini paydo qilmaydi. Inkubatsion davri o‘rtacha 5-7 kun. Odatda, u asta-sekin boshlanadi, bemorning ahvoli yomonlashadi, intoksikatsiya belgilari paydo bo‘ladi, isitma ko‘tariladi, darmonsizlik, bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi, ba‘zan qusish alomatlari ro‘y beradi. Kasallik grippga o‘xshab birdan boshlanishi ham mumkin. Qator hollarda gipertemiya, odatda, uzoq muddatli tumov paydo bo‘ladi, qovoqlar qizaradi, ko‘zdan yosh oqadi, yutinganda tomoqda og‘riq seziladi. Boshqa hollarda azob beradigan quruq yo‘tal, tovushning bo‘g‘ilib qolishi, havo yetishmasligi kuzatiladi. Ba‘zan me‘da-ichak faoliyati buziladi, axlat konsistensiyasi suyuq, tez-tez ich ketish-diareya kuzatiladi. Bemorni uyda boshqalardan ajratib qo‘yiladi, izolyatsiya rejimiga o‘tkaziladi.

Paragripp kasalliklarni paragripp viruslari qo‘zg‘atadi, ular 1—3 kundan keyin xona haroratida o‘z faolligini yo‘qotadi, lekin 4° temperaturada yaxshi saqlanadi. Kasallikning inkubatsion davri 1—6 kun. Kasallik darmonsizlik, yo‘tal bilan boshlanadi: temperatura ko‘tariladi, tovush bo‘g‘ilib qoladi, tomoq achishib, bemor yo‘taladi. 1—3 yashar bolalarda shilliq parda shishishi sababli hiqildoq torayadi-hiqildoq stenozi, bunda nafas olish to‘satdan qiyinlashadi. Bemor uy sharoitida vrach nazoratida davolanadi. Chaqaloqlarda va bir yashar bolalarda o‘pkaning yallig‘lanishi (zotiljam), o‘rta quloqning yallig‘lanishi (otit) kuzatilishi mumkin. Bunday hollarda bolalar kasalxonada davolanadi.

Zotiljam (pneumoniae) bir-biridan etiologiyasi, patogenez, morfologik xususiyatlari bilan farqlanuvchi o‘pkaning yallig‘lanishli kasalliklar guruhidir. Zotiljam ichki a‘zolarining eng ko‘p tarqalgan kasalliklaridan biri hisoblanadi va ularni turli tabiatli mikroorganizmlar chaqiradi. Kasallik funksional o‘zgarishlar (surunkali nafas olish yoki yurak yetishmovchiligi), o‘zgarishsiz va asoratlarning bor-yo‘qligiga ko‘ra asoratlangan va asoratlanmagan turlarga bo‘linadi.

«Pnevmoniya» atamasi katta guruhdan iborat kasalliklarni birlashtiradi, ularning har biri o‘ziga xos etiologiya, patogenez, klinik tasvir, rentgenologik



belgilar, laboratoriya tadqiqotlari va davolash xususiyatlari bo'yicha xarakterli farqlarga ega.

O'pka to'qimasida infeksiyon bo'lmagan yallig'lanish jarayonlari odatda pnevmonit yoki o'pkaning nafas olish qismlarining birlamchi zararlanishi holatida alveolit deb ataladi. Bunday aseptik yallig'lanish jarayonlari fonida ko'pincha bakterial, virusli-bakterial yoki zamburug'li pnevmoniya rivojlanadi.

Zotiljam kasalligi dunyo bo'ylab 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning 15 foizida o'limga sabab bo'ladi.

Jarayonning kechish tabiati bo'yicha quyidagilar ajratiladi:

a) O'tkir pnevmoniya: o'z navbatida, tezkor (3 haftagacha) va uzoq (2 oygacha) kechuvchi turlarga bo'linadi;

b) Subo'tkir pnevmoniya: klinik davomiyligi — taxminan 3-6 hafta;

c) Surunkali pnevmoniya (hozirgi vaqtda tasniflardan chiqarib tashlangan): zaif intensivlik va uzoq davomiylik bilan tavsiflanadi — bir necha oydan bir necha o'n yilgacha. Rinovirus kasalliklarni rinoviruslar qo'zg'atadi. Kasallikda epidemiyalar bo'lmaydi. Inkubatsion davri 2—3 kun. Darmonsizlik, tana temperaturasining bir oz ko'tarilishi, bosh og'rishi, burundan yiring aralash shilimshiq (sariq-yashil rangli) kelishi, yo'tal kuzatiladi. Chaqaloq va go'daklar bu kasallikka beriluvchan bo'ladi, kasallik ularda og'ir o'tadi va turli asoratlar qolishi mumkin.

Pnevmoniyani davolashning asosi bu antibiotiklardir. Antibiotik guruhini tanlash pnevmoniyani keltirib chiqargan mikroorganizmga bog'liq holda amalga oshiriladi. Shuningdek, bronxlarni kengaytiradigan va balg'amni suyuqlashtiradigan dorilar — ichga qabul qilish yoki ingalayatsiyalar shaklida, kortikosteroidlar, tomir ichiga tuz eritmalari yuborish, kislorod qo'llaniladi.

Ba'zida plevral punktsiya va bronxoskopiya amalga oshiriladi. Ko'pincha fizioterapiya usullari ham tayinlanadi: ultrabinafshali nurlanish, vibratsion massaj, fizioterapevtik mashqlar, parafin, ozokerit.

Kasallikni oldini olish maqsadida unga olib keladigan eng keng tarqalgan qo'zg'atuvchilarga nisbatan vaktsinatsiyalar amalga oshiriladi.

Patogen noaniq bo'lgan holatlarda davolash uchun antibiotiklar sifatida himoyalangan penitsillinlar va sefalosporinlar (ya'ni keng spektrli antibiotiklar), makrolidlar qo'llaniladi. Shuningdek karbapenemlar (tienam, meropenem), respirator ftorxinolonlar qo'llanilishi mumkin. Agar terapiya samarasiz bo'lsa, antibiotik boshqa turdagisiga almashtiriladi. Davolash muvaffaqiyatli borayotganini ko'rsatuvchi mezon — antibiotiklarni qo'llash boshlangan kundan boshlab uchinchi kuni tana haroratining normallasishi,



shuningdek ko'rik va ko'krak qafasi rentgenogrammasining ob'yektiv ma'lumotlari sanaladi.

ÒRVI va grippga kasalliklarida davolash uchun qòllaniladigan 5ta eng samarali dori vositalari:

- 1.Arbidol
- 2.Ergoferon
- 3.Anaferon
- 4.Ingavirin
- 5.Kagosel

Immunitetni mustahkamlash uchun ishlatiladigan eng zamonaviy dori vositalari: Supramidin Immuno Forte, Sirop Pediakid, Superum Vitamin C. O'tkir respirator kasalliklar bilan og'rikan bemorni uyda davolaganda alohida xonaga yotqiziladi. Bemorni parvarish qilayotgan oila a'zolari og'iz burniga doka niqob taqib yurishlari kerak. Kasal yotgan xonani tez-tez shamollatib, ko'rpa yostiq jildi, choyshabni muntazam almashtirib turish zarur. Bemorning harorati ko'tarilgudek bo'lsa, uni yaxshilab o'rab, limon, malina solingan issiq choy berish, iloji boricha ko'proq suyuqlik (choy, mors, kompot, sharbat va h.k.) ichirish lozim. Ovqat yengil hazm bo'ladigan va oqsilga boy (bulonlar, go'shtli va baliqdan qilingan kotletlar, tvorog , sabzavotlar, ho'l mevalar) bo'lishi zarur. Bemor uchun alohida idishtovoq tutish lozim. U yotgan xonani va mebelni kuniga ikki mahal nam latta bilan artib turiladi. O'tkir respirator virusli infeksiyalar bilan kasallanish odamning immun tizimiga ham bog'liq bòladi. Immun tizimi barqaror bòlgan insonlarda O'RVVI bilan kasallanish holatlari kamroq uchraydi. Bundan tashqari, insonning harakatchanligiga ham bog'liq bòladi. Demak, O'RVVI profilaktikasi aholi òrtasida shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishni targ'ib etish, immun tizimini barqarorlashtirish shart-sharoitlarini tushuntirish, toza havoda sayr etishni kòproq amalga oshirishni yòlga qòyish kiradi, uning davolash prinsiplariga esa turli xil antibiotiklardan foydalanishni (shifokor kòrsatmasiga binoan, organizmning sezuvchanligini hisobga olgan holda) amalga oshirishdan iborat.

Xulosa: O'RVVI va gripp hamda shu guruhga kiruvchi boshqa yuqumli virusli infeksiyalar bilan kasallanish koyeffitsient yuqori. 2019-yilda aniqlangan Covid-19 virusli infeksiyasi epidemiya bo'lib butun dunyoda tarqaldi. Hozirgi kunda butun dunyo bo'yicha 508 million, shundan 6,21 million aholi; O'zbekiston Respublikasida 238 mingta kasallanish holati aniqlangan, shundan 1637 ta fuqaro vafot etgan. Kasallikdan himoyalashning eng yaxshi usuli shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish qoidalariga amal qilish, kasallanish holati aniqlanganda



atrofdagi insonlar bilan kontakda bo‘lmaslik, shifokor tavsiyaga muvofiq dori vositalaridan foydalanish. Bugungi kunda JSST yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha tegishli jamg'armalar tashkil etgan. 127 million dollardan ortiq yig'ilgan pul miqdori UNICEF tashkilotining eng muhtoj davlatlaridagi oilalariga moddiy yordam sifatida o'tkazilgan.

